



UO'T: 631.4

SUG'ORILADIGAN TIPIK BO'Z VA O'TLOQI TUPROQLARNING XOSSA XUSUSIYATLARI

Burxanova Dilnavoza Utkurovna 

q.x.f.f.d. (PhD), dotsent

e-mail: d.burxanova77@mail.ru

Xolmo'minov Samandar Murodjon o'g'li 

talaba

e-mail: sxolmominov1@gmail.com

Abdublikov Shohjahon Sultonmurod o'g'li 

talaba

e-mail: shohjahonabd16@gmail.com

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Maqolada sug'oriladigan tipik bo'z va o'tloqi tuproqlarning mexanik tarkibiga ko'ra yirik chang zarralaridan tashkil topgan bo'lib, o'rta qumoqli tupoqlar qatoriga kirishi ifodalangan. Tipik bo'z tuproqning 31-53 sm qatlam chuqurligida fizik loy miqdori 32,4-33,7% ni, undan quyi qatlamda mos ravishda fizik loy miqdori 33,8-37,5% gacha oshganligini va o'tloqi tuproqlarning yuqori 0-28 sm qatlamida mexanik tarkibi ko'ra, yengil qumoqli bo'lib, fizik loy miqdori 29,79 % ni tashkil etib, 28-45 sm qatlamda o'rta qumoq, quyi 90-120 sm qatlamida fizik loy miqdori 20,64% bo'lib, mexanik tarkibiga ko'ra yengil qumoqligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tipik bo'z, o'tloqi, sug'oriladigan, kesma, qatlam chuqurligi, mexanik tarkibi, fizik loy, yirik chang, zarrachalar.

Аннотация. В статье приведены орошаемые типичные сероземный почвы в котором была сложена по механическому составу крупными пылевидными частицами и относится к категории средних супесей. Выявлено, что содержание физической глины в типичной сероземной почве на глубине 31-53 см составляет 32,4-33,7%, а в нижнем слое содержание физической глины увеличивается до 33,8-37,5%, а верхний слой луговых почв 0-28 см по механическому составу легкосуглинистый, с содержанием физической глины 29,79%, слой 28-45 см - среднесуглинистый, а нижний слой 90-120 см имеет содержание физической глины 20,64%, механический состав - легкосуглинистый.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Ключевые слова: Типичные серозем, луговой, орошаемое, разрез, глубина слоя, механические состав, физическая глина, частица, физическая глина, крупная пыль, частицы.

Abstract. The article provides a typical irrigated serazem soil is composed of large dust-like particles in terms of mechanical composition and belongs to the category of medium sandy loam. It was found that the content of physical clay in a typical sierozem soil at a depth of 31-53 cm is 32.4-33.7%, and in the lower layer the content of physical clay increases to 33.8-37.5%, and the upper layer of meadow soils 0-28 cm in mechanical composition is light loamy, with a physical clay content of 29.79%, the layer 28-45 cm is medium loamy, and the lower layer 90-120 cm has a physical clay content of 20.64%, mechanical composition is light loamy.

Keywords. Typical sierozem, meadow, irrigated, section, layer depth, mechanical composition, physical clay, particle, physical clay, coarse dust, particles.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda degradatsiyaga uchragan tuproqlarning xossususiyatlarini yaxshilash orqali unumdorligini hamda qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, sug'oriladigan tuproqlarda degradatsiya jarayonlari natijasida tuproq qoplamida yuzaga keladigan o'zgarishlarni aniqlash, organik dehqonchilik tizimini yo'lga qo'yish orqali sug'oriladigan tuproqlar unumdorligini oshirish texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan tuproqlarda unumdorligini saqlash va oshirish, sug'oriladigan tuproqlar degradatsiyasining oldini olishga hamda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirishga qaratilgan agrotexnologiyalarni joriy etish orqali dehqonchilikni rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tuproqlarning rivojlanishi, genetik qatlamlarning takomillanishi eng oldin nurlangan tog' jinslari mayda zarrachalarining holati bilan belgilanadi. Mayda zarrachalar yig'indisi o'z navbatida uning mexanik tarkibini tashkil qiladi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlarda dala tajribalari O'zPITI olimlari tomonidan ishlab chiqilgan «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» qo'llanmasi bo'yicha olib borilgan. Tuproq tahlillari Ye.V.Arinishkinaning «Руководство по химическому анализу почв», D.G.Zvyaginsevning «Методы почвенной микробиологии и биохимии» qo'llanmalari, olingan natijalarning statistik tahlili B.A.Dospexovning «Metodika polevogo opyta» qo'llanmasi bo'yicha bajarilgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tuproqning mexanik tarkibi va uning strukturalik holati tuproqning agrofizikaviy xossalari bilan bog'liq bo'lib, suv, havo, issiqlik tuproqning fizik-





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

mexanikaviy xossalariga ta'sir etadi. Tuproqning paydo bo'lish jarayonlariga uning unumdorligiga fizik-mexanik xossalarining ta'sirini o'rganishda ko'pgina olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning fikriga ko'ra tuproqning mexanik tarkibi tuproqni tavsiflashdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u suv-fizikaviy va fizik-mexanik xossalar bilan bog'liq [1; 3; 7; 10; 11; 12].

Xo'jalikda yangi o'zlashtirilgan sug'oriladigan tuproqlarning yuza qatlamlarida shag'al toshli qatlamlar mavjud bo'lib, ularga agrotexnik ishlov berishda birmuncha qiyinchilik keltirib chiqaradi. Qadimdan sug'oriladigan tuproqlarida 2-3 metr pastda shag'al toshli qatlam, ayrim hollarda 1-2 metr chuqurlikda uchraydi. Mexanik tarkibi ko'p jihatdan tuproqning agrofizikaviy xossalari (solishtirma va hajm og'irlik, g'ovaklik, nam sig'imi, suv o'tkazuvchanlik va boshqalar)ga bog'liq holda ifodalanadi. Biz tadqiqot olib borgan tuproqlar, morfologik tuzilishi jihatidan qat'iy nazar, mexanik tarkibiga ko'ra o'rta va og'ir qumoqlidir. Mexanik tarkibi bo'yicha u yoki bu fraksiyalar (yirik qum (1,0-0,05 mm), o'rta qum (0,05-0,01 mm), mayda chang (0,01-0,001 mm) va loyqa (0,001 mm dan kichik)) ustun turishi aniqlanadi.

Bizning tadqiqotlarimizdan olingan ma'lumotlarga ko'ra sug'oriladigan tipik bo'z tuproq mexanik tarkibiga ko'ra yirik chang zarralaridan tashkil topgan bo'lib, o'rta qumoqli tupoqlar qatoriga kiradi. O'zMEI tajriba maydonida tarqalgan tipik bo'z tuproqning (1-kesma) 31-53 sm qatlam chuqurligida fizik loy miqdori 32,4-33,7% ni, undan quyi qatlamda mos ravishda fizik loy miqdori 33,8-37,5% gacha oshganligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

O'rganilgan tuproqlarning mexanik tarkibi

Kesma № tuproq tipi, tipchalari	Chuqurligi, sm	Fraksiya, mm							Fizik loy
		> 0,25	0,25- 0,1	0,1- 0,05	0,05- 0,01	0,01- 0,005	0,005- 0,001	< 0,001	
K-1 Sug'oriladigan tipik bo'z tuproq	0-31	0,8	0,2	13,1	53,2	10,7	12,0	9,7	32,4
	31-53	0,4	0,1	17,0	50,1	10,7	9,4	12,6	32,7
	53-80	0,8	0,2	16,5	48,8	14,0	10,6	9,1	33,7
	80-120	0,4	0,1	10,9	54,8	13,3	14,6	5,9	33,8
	120-150	0,5	0,1	12,6	50,0	15,2	14,6	7,0	36,8
	150-200	0,4	0,1	14,3	47,7	14,2	14,5	8,8	37,5
K-5 Sug'oriladigan o'tloqi tuproq	0-28	0,8	0,5	17,8	51,0	3,9	12,5	13,2	29,7
	28-45	0,9	0,8	10,0	52,3	14,0	10,6	11,2	35,8
	47-90	0,8	0,8	10,0	48,0	10,0	12,5	17,4	40,0
	90-120	0,9	0,7	16,1	62,5	6,01	0,68	12,9	19,6

O'tloqi tuproqlar (5-kesma) yuqori 0-28 sm qatlamida mexanik tarkibi ko'ra, yengil qumoqli bo'lib, fizik loy miqdori 29,79 % ni tashkil etib, 28-45 sm qatlamda o'rta qumoq, quyi 90-120 sm qatlamida fizik loy miqdori 20,64% bo'lib, mexanik tarkibiga ko'ra yengil qumoqligi kuzatildi.

Yuqori qatlamlarda fizik loy miqdori 32,4-33,7 % ni, quyi qatlamlarda 33,8-37,5% gacha oshganligini, o'tloqi tuproqlarda mexanik tarkibi ko'ra, yengil qumoq



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

va o'rta qumoqli bo'lib, yuqori qatlamlarda fizik loy miqdori 29,79 % ni quyi qatlamda esa 19,64 % tashkil etdi. Bu holat tuproq hosil qilish jarayonlari va litologik profilning tuzilishi bilan bog'liqdir.

XULOSA

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, sug'oriladigan tipik bo'z tuproq mexanik tarkibiga ko'ra yirik chang zarralaridan tashkil topgan bo'lib, o'rta qumoqli tupoqlar qatoriga kiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdushukurova Z.Z. Sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlarning agrofizikaviy xossalari va tuz tartiboti. Avtoref.dis...kand.s-x.nauk. – Tashkent, 2010. –S. 29.
2. Ibragimov N.M., Hakimov Sh.Z., Mirzaev L.A. Mineral o'g'it me'yorlarining kuzgi bug'doy NPKni o'zlashtirish va yer usti biomassasiga ta'siri. // Tuproq unumdorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslari (1-qism). Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari asosidagi maqolalar to'plami. Toshkent. 2007. 234-236 b.
3. Turapov I., Qurvontoev R., Mo'minov S., Murodov F., Nomozov N. Bug'doyni mulchalash ta'sirida eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproq tarkibidagi oziqa moddalarning o'zgarishi // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami.- Toshkent, 2013. -B. 60-64.
4. Kurvantaev R. Qishlok xo'jalik ekinlarini pushtaga ekish muammolari // Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqdar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari: Kon. mat. 2 kism. Samarqand, 2003. -B.89-91.
5. Kurvontaev R. Sug'oriladigan tuproqdarning agrofizik holatini maqbullashtirish va boshqarish// Tuproqshunoslar va agrokimyogarlar III - kurultoyida ma'. tez.-Toshkent, 2000.-B.93-94
6. Islamov S., Namozov N., Saidova M.E., Kodirova D.A. Elimination of desert pastures degradation through creation of perennial crop areas in Uzbekistan. "E3S Web of Conferencesthis". 2021, 244, 03028